BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANING PEDAGOGIK SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI

Raupova Munira Murodovna
Navoiy davlat universiteti Pedagogika fanlari doktori DSc
Tajiyeva Ruxsora Normuminovna
Navoiy shahar MTBga qarashli 13-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatida yuzaga keladigan kasbiy deformatsiya holatlari va ularning pedagogik sabablari tahlil qilinadi. Kasbiy deformatsiyaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishga salbiy ta’siri ilmiy asosda ochib berilgan hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini yuksaltirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy deformatsiya, bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik sabablar, profilaktika, kasbiy madaniyat, psixologik muvozanat, o‘quv jarayoni, innovatsion mexanizmlar

Аннотация. В статье анализируются педагогические причины возникновения профессиональной деформации у будущих учителей. Раскрывается отрицательное влияние профессиональной деформации на личностное и профессиональное развитие педагога, обосновываются механизмы её предупреждения и преодоления. Полученные результаты способствуют формированию профессиональной культуры будущих учителей и повышению эффективности педагогической деятельности.

Ключевые слова: профессиональная деформация, будущие учителя, педагогические причины, профилактика, профессиональная культура, психологическое равновесие, учебный процесс, инновационные механизмы

Abstract. This article examines the pedagogical causes of professional deformation among future teachers. The study reveals the negative impact of professional deformation on personal and professional development and proposes mechanisms for its prevention and elimination. The findings contribute to enhancing the professional culture of future teachers and improving the effectiveness of pedagogical activities.

Keywords: professional deformation, future teachers, pedagogical causes, prevention, professional culture, psychological balance, educational process, innovative mechanisms

Kirish

ISSN 3030-3907

XXI asrda ta’lim tizimining modernizatsiyasi, innovatsion texnologiyalar joriy etilishi va global axborot makonining kengayishi pedagogik kasbga qo‘yilayotgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu jarayon o‘qituvchilardan nafaqat yuqori darajadagi kasbiy mahorat, balki moslashuvchanlik, ijodkorlik va barqaror psixologik holatni ham talab etadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchilarda kasbiy faoliyat davomida asta-sekinlik bilan kasbiy deformatsiya deb ataluvchi muayyan salbiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bu holat shaxsning kasbiy faoliyatga ortiqcha moslashishi natijasida uning shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorida stereotipik, rigid va emotsional jihatdan cheklangan xususiyatlarning shakllanishi bilan izohlanadi.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, kasbiy deformatsiya nafaqat o‘qituvchilarning mehnat samaradorligini pasaytiradi, balki ularning psixologik salomatligi va ijtimoiy faoliyatiga ham bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ta’limdagi keskin o‘zgarishlar, ortib borayotgan yuklama va yuqori ijtimoiy mas’uliyat pedagoglarning charchash sindromi, emotsional befarqlik va professional beqarorlik kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda [1]. Shu bois xalqaro ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy deformatsiyasini erta aniqlash va bartaraf etish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu masala nihoyatda dolzarbdir. Ta’lim tizimidagi islohotlar, o‘qituvchilar faoliyatiga qo‘yilayotgan yangi talablar, raqamli ta’limga o‘tish jarayoni yosh pedagoglarda moslashuv muammolarini, tajribali o‘qituvchilarda esa kasbiy inertlik va motivatsiya pasayishini yuzaga keltirmoqda. Natijada, kasbiy deformatsiya pedagogik faoliyat samaradorligini cheklab, o‘qituvchi shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanishini sekinlashtiradi[5, 25-31]. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy deformatsiyadan himoya qilishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy deformatsiyaning pedagogik sabablari va ularni bartaraf etish mexanizmlarini tadqiq etish zamonaviy pedagogika oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Mazkur masala o‘qituvchilarning professional madaniyatini rivojlantirish, ularning psixologik barqarorligini ta’minlash va ta’lim sifati barqarorligini oshirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik faoliyat insonning kasbiy shakllanishida alohida o‘rin tutadi. Shu jarayonda o‘qituvchida ijobiy professional sifatlar bilan bir qatorda, salbiy holatlar ham shakllanishi mumkin. Bu salbiy o‘zgarishlar ilmiy adabiyotlarda “kasbiy deformatsiya” atamasi bilan izohlanadi. A. K. Markova ta’kidlaganidek, kasbiy

ISSN 3030-3907

deformatsiya — bu o‘qituvchi shaxsiyatining kasbiy faoliyatga ortiqcha moslashishi natijasida yuzaga keladigan va uning kasbiy samaradorligini pasaytiradigan o‘zgarishlardir [1].

Rossiyalik tadqiqotchilar T. L. Shabanova, A. M. Novikova va A. M. Romanova kasbiy deformatsiyaning sabablari sifatida haddan tashqari emotsional yuklama, mehnat jarayonining stereotipiklashuvi va ijodiy yondashuvning kamayishini ko‘rsatadilar [4, 115-118]. Ularning fikricha, ayniqsa yosh pedagoglarda kasbiy motivatsiya yetarlicha shakllanmagani bu jarayonni tezlashtiradi.

E. F. Zeer esa kasbiy deformatsiyani shaxsning professional rivojlanishidagi normal bosqichlardan biri sifatida talqin qiladi. Biroq u vaqtida aniqlanmasa, bu jarayon o‘qituvchining shaxsiy va professional o‘sishini to‘xtatib qo‘yishi mumkinligini ta’kidlaydi [6]. Bu yondashuv pedagogik deformatsiyani butunlay salbiy emas, balki nazorat qilinishi lozim bo‘lgan rivojlanish jarayoni sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xalqaro tajribada, ayniqsa, o‘qituvchilar faoliyatida “professional burnout” (kasbiy charchash) fenomeni keng tadqiq qilingan bo‘lib, u kasbiy deformatsiya bilan bevosita bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, o‘qituvchilar kasbiy charchashining asosiy omillari — yuqori ijtimoiy mas’uliyat, mehnatning emotsional zo‘riqishi va ijodiy erkinlikning cheklanishi hisoblanadi [2, 45-50].

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan ilmiy ishlarda ham bu masala dolzarb hisoblanadi. Xususan, Yankovskaya va Naumova ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar sharoitida o‘qituvchilarda kasbiy deformatsiya xavfi ortishini, bu esa pedagogik jarayon samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar [5, 25-31]. Shuningdek, tadqiqotlarda kasbiy deformatsiyani oldini olish uchun o‘qituvchilarda kasbiy motivatsiya va madaniyatni rivojlantirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarurligi ta’kidlanadi.

Kasbiy deformatsiya murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘qituvchining faoliyat sharoitlari, kasbiy vazifalari va ta’lim muhitidagi o‘ziga xos omillar ta’sirida shakllanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, deformatsiyaning pedagogik sabablari asosan ta’lim jarayonining tashkiliy, metodik va kommunikativ jihatlaridan kelib chiqadi[3].

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, kasbiy deformatsiya muammosi xalqaro hamjamiyatda ham, O‘zbekistonda ham dolzarbdir. Tadqiqotlar ko‘proq uning sabablari, oqibatlari va diagnostikasiga qaratilgan bo‘lsa-da, hali to‘liq ishlab chiqilmagan muhim yo‘nalishlardan biri bu — bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy

ISSN 3030-3907

deformatsiyani pedagogik sabablari orqali aniqlash va samarali profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy deformatsiya rivojlanishining asosiy pedagogik sabablari – ta’lim jarayonining standartlashuvi, haddan tashqari yuklama, faoliyatning bir xillashuvi, muloqot stereotiplari va kasbiy motivatsiyaning susayishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu omillar o‘qituvchi shaxsining kasbiy faoliyatga ortiqcha moslashishiga, ijodkorlik salohiyatining cheklanishiga va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarining qisqarishiga olib keladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, xalqaro tajribada kasbiy deformatsiya profilaktikasi bo‘yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan. Jumladan, o‘qituvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash, professional maslahat markazlarini tashkil etish, “burnout” sindromini oldini olishga qaratilgan treninglar o‘zini ijobiy ko‘rsatmoqda[2, 45-50]. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida art-terapiya, kouçing va refleksiv yondashuvlar ham kasbiy deformatsiyani bartaraf etishda samarali vosita sifatida taklif etilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kasbiy deformatsiya muammosini hal qilishda bir qator mexanizmlar qo‘llanishi mumkin. Jumladan:

– bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus kurslarni joriy etish;

– ijodkorlik va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi metodik muhitni yaratish;

– pedagoglarni psixologik-pedagogik treninglar orqali kommunikativ madaniyatga o‘rgatish;

– o‘qituvchilar faoliyatida ijodiy izlanishlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish;

– oliy ta’lim muassasalarida mentorlik tizimini rivojlantirish orqali yosh pedagoglarni tajribali o‘qituvchilar bilan hamkorlikka jalb qilish.

Natijalardan kelib chiqadiki, kasbiy deformatsiyani bartaraf etishning samarali mexanizmlari — bu pedagogik muhitni yangilash, psixologik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy-pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsida kasbiy deformatsiya pedagogik jarayonning ajralmas oqibati sifatida yuzaga kelishi mumkin. Uning asosiy sabablari sifatida ta’lim jarayonining standartlashuvi, pedagogik faoliyatning bir xillashuvi, yuqori emotsional yuklama,

ISSN 3030-3907

kommunikativ stereotiplar va kasbiy motivatsiyaning susayishi aniqlanadi. Ushbu omillar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi, shaxsiy va professional o‘sishini sekinlashtiradi hamda ta’lim sifatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois, kasbiy deformatsiya profilaktikasi — bu faqatgina psixologik muammolarni hal etish emas, balki o‘qituvchi shaxsining barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan kompleks pedagogik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotimiz natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus modul va kurslarni joriy etish.
2. Ta’lim jarayonida ijodkorlik va refleksiv yondashuvga asoslangan metodik tizimni keng qo‘llash orqali shablonli yondashuvlarning oldini olish.
3. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy refleksiya va o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun psixologik treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni tizimli tashkil etish.
4. Mentorlik va ustoz-shogird an’analarini rivojlantirish orqali yosh o‘qituvchilarning kasbiy moslashuv jarayonini yengillashtirish.
5. Pedagoglarda emotsional charchashni kamaytirish uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari faoliyatini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маркова А. К. Психология профессионализма. – Москва : Знание, 1996. – 308 с.
2. Профилактика профессиональной деформации учителей в управлении качеством образования // Молодой ученый. – 2020. – № 234. – С. 45–50. – URL: https://moluch.ru/archive/234/43029
3. Профессиональная деформация личности педагога: диагностика и профилактика // КиберЛенинка. – 2021. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnaya-deformatsiya-lichnosti pedagoga-diagnostika-i-profilaktika
4. Шабанова Т. Л., Новикова А. М., Романова А. М. Профессиональные деформации личности учителя: причины, виды, проявления // Нижегородский психологический альманах. – 2016. – № 4. – С. 112–118. – URL: https://psykaf417.esrae.ru/ru/8-r70
5. Янковская О. В., Наумова Ю. А. Профессиональная деформация учителя в условиях реформирования системы образования // Педагогическое образование в России. – 2019. – № 6. – С. 25–31.

ISSN 3030-3907